

“ISHAROTUL MAROM” ASARINING “TAVHID” ASARI BILAN QIYOSIY TAHLILI

Saidmuhammadkhon D. Muhibullayev

*Tayanch doktorant, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, A.Kadiri str. 11, 100011, Tashkent,
Uzbekistan*

A R T I C L E I N F O.

Kalit so‘zlar: Kamoliddin Bayoziy, kalom, Moturidiy, ta’limot, “Kitob at-tavhid”, “Ta’vilot al-Qur’on”.

Annotatsiya

Maqolada Kamoliddin Bayoziyning “Ishorat al-marom” asarida islom dini ta’limotini asoslab beruvchi ilm bo‘lmish kalom ilmiga oid tushunchalar va ularni Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid” asari bilan o‘zaro tahlili bayon etilgan. Asardagi ma’lumotlarda aqidaviy mazhablar o‘rtasidagi ma’lum bir masalalar bo‘yicha o‘xhash va farqli jihatlar ham tahlili ham yoritilgan. Bu esa bugungi kunda mavjud ibodat masalalariga doir ixtiloflarni bataraf etishda muhim ahamiyat kash etadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Islom diniga oid har bir fanga tegishli asarning qadr-qiymati, martabasi naqliy va aqliy dalil hamda hujjatlarga asoslanishi, tayanganidan kelib chiqib uning darajasi va tutgan o‘rni belgilanadi. Chunki o‘tmishda ham, hozirgi davrda ham insonlar ma’lum bir dalil va hujjatga asoslanamagan quruq gap yoki tahminlar yoxud farazlarga ishonmaydi, ularni qabul ham qilmaydi.

Kamoliddin Bayoziy e’tiqodiy mavzularni bayon qilishda kalom ilmiga oid manbalardan, xususan Abu Hanifa asarlaridan ham foydalanganini ta’kidlash o‘rinli. Jumladan, Allohning sifatlari¹, imonning ko‘payib kamaymasligi², banda biror ishni bajarishga o‘sha onda Alloh paydo qiladigan qudrat bilan qodir bo‘lishi³ kabi mavzularda Abu Hanifaning “al-Vasiyat” asarida bayon qilingan mavzularga hamohang bo‘lishidan tashqari alloma ularni sodda va tushunarli uslubda tushuntirib bergen.

Bundan tashqari, Abu Hanifaning “al-Fiqh al-akbar” asaridagi Alloh ma’dum (yo‘q) narsalarni ham bilishi⁴, Allohnинг xoliqlik (yaratuvchilik) sifati azaliyligi, bandalarning amallari tarozi bilan o‘lchanishi kabi e’tiqodiy mavzular Kamoliddin Bayoziy ijodida ham o‘z aksini topgan.

Kamoliddin Bayoziy mo‘taziliylarning e’tiqodiy qarashlarini o‘z davrida mo‘taziliylar boshlig‘i Qozi Abduljabbor (vaf. 415/1025) asarlariga tayangan holda bayon qilib bergen.

¹ Abu Hanifa. Vasiyat. // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Abdurashid Qori Bahromov. Imom A’zam asarlar. – Toshkent: Mavarounnahr, 2003. – B. 44.

² Abu Hanifa. Vasiyat. // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Abdurashid Qori Bahromov. Imom A’zam asarlar. – Toshkent: Mavarounnahr, 2003. – B. 32.

³ Abu Hanifa. Vasiyat. // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Abdurashid Qori Bahromov. Imom A’zam asarlar. – Toshkent: Mavarounnahr, 2003. – B. 35

⁴ Abu Hanifa. Al-fiqh al-akbar. // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Hamidulloh Aminov. – Toshkent: Mavarounnahr, 2022. – B. 95

Qolaversa, mo‘taziliylarning qarashlariga ko‘ra aql sababidan insonga imon keltirish vojibligi⁵, imonda taqlid qilish joiz emasligi va taqlid qiluvchi mo‘min hisoblanmasligi, Allohning sifatlari azaliy ekanini inkor qilishi, Allohning adolati haqidagi qarashlari kabi mavzularni Qozi Abduljabborning “Sharh usul al-xamsa (mo‘taziliylar besh asosining sharhi)” asaridan foydalangan holda bayon qilgan⁶.

Kamoliddin Bayoziy “Ishorat al-marom” asari bevosita moturidiya ta’limotiga asoslangani bois ham, mazkur ta’limot asoschisi Abu Mansur Moturidiyning shoh asari “Kitab at-tavhid” asaridan ham unumli foydalanganini ta’kidlab o‘tish lozim. Jumladan, moturidiylar qarashlariga ko‘ra olamning Yaratuvchisi qadim ekani, Allohning sifatlari⁷, Alloh tomonidan vahiy bo‘lishi va rasullarni jo‘natilishi hikmatga ko‘ra vojib ekani, shariatda sobitligi va tarki qabih ekani, imon, islam, ma’rifat va tavhid tushunchalari o‘rtasida farq yo‘qligi, banda biror ishni bajarishga o‘sha onda Alloh paydo qiladigan qudrat bilan qodir bo‘lishi kabi mavzularda Kamoliddin Bayoziy talqini Moturidiy qarashlariga to‘la mos keladi.

Bundan tashqari, ahl as-sunna va-l-jamoa ulamolarining o‘z davridagi adashgan firqa vakillari bilan qilgan bahs-munozaralaridan foydalangan holda mavzularni yanada keng va batafsil yoritib bergen. Olim aqoidga oid muayyan bir mavzuni yoritib berishda ahl as-sunna va-l-jamoa ulamolarining turli din va firqa vakillari qilgan bahs munozaralarini ham keltirib o‘tadi.

“Ishorat al-marom” asarining bugungi kundagi ahamiyatli jihatni haqida shuni aytish mumkinki, asarda keltirilgan masalalarni bayon etishda, hanafiy mazhabi imomlarining so‘z va dalillarini keltirish bilan birga ba’zi masalalar yuzasidan ahl as-sunna va-l-jamoaning boshqa mazhab imomlarining ham so‘z va dalillarini keltirib, ularni hanafiy fiqhi qarashlari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Mazhablar o‘rtasidagi ma’lum bir masalalar bo‘yicha o‘xhash va farqli jihatlar asarning ibodat masalalariga doir qismida keltiriladi. Bu esa bugungi kunda mavjud ibodat masalalariga doir ixtiloflarni bataraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moturidiya ta’limotidagi asarlar Imom Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid” va “Ta’vilat al-Qur’on” kitoblari bilan uyg‘un keladi, ularni sharhlaydi va yanada osonroq tushunishga yordam beradi. Jumladan, Kamoliddin Bayoziyning “Ishorat al-marom” asarini ham ana shunday manbalar sirasidan deyish mumkin. Asarning tuzilishi va mazmunini “Kitob at-tavhid” bilan solishtirish davomida mazkur holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Imom Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid” asari beshta bobdan iborat bo‘lib, unda turli aqidaviy mavzular yoritilgan.

1-bob: Illohiyat masalalariga bag‘ishlangan, unda olamning yaratilganligi, araz yoki sifat, olamni yaratuvchi Zot, olamni paydo qiluvchi Zotning yagonaligi, Allohga biror narsani o‘xshatmaslik, shohidning g‘oyibga dalolat qilishi, sanaviylar (dualistlar)ning olam va boshqalar yaratilganligi haqidagi so‘zleri, Alloh taologa “jism” lafzining ishlatilishi, Allohga “shay” lafzining ishlatilishi, Alloh taolonning sifatlari, takvin, Ka’biyning zotiy sifatlar borasidagi qarashlari masalasi, fe’liy sifatlar va ularga raddiyalar, Kalom sifati, Alloh taolonning fe’llarida ixtiyor borligi, Yaratuvchi, Hakim va barcha narsani biluvchi Zotni inkor qiluvchilarga raddiya, Alloh azza va jallaning ismlari, Arsh bayoni, Alloho ko‘rish, Alloho vasf qilish va nomlash, Alloh nima uchun maxluqotlarni yaratgani, Parvardigorni tanish, “Shay” lafzini qo‘llash, Alloh taloni makon bilan vasf qilib bo‘lmasisligi, Alloh taologa yaqin bo‘lish, zararli narsalarning yaratilishidagi hikmat, dunyodagi insoniyatning turfa xilligi, sanaviylarga raddiya, tabiatchilarga raddiya, tavhid yo‘llari masalasi, Muhammad ibn Shabibning Alloh taolonning borligi va Uning sifatlari borasidagi qarashlari, ilmni nazar ila himoya qilish, Muhammad ibn

⁵ Kamoliddin Bayoziy. Ishorot al-marom, min iborot li-Imom Abi Hanifa an-Nu’mon. – Bayrut: Dor al-kutub al-Ilmiyya, 1974. – B. 85.

⁶ Kamoliddin Bayoziy. Ishorot al-marom, min iborot li-Imom Abi Hanifa an-Nu’mon. – Bayrut: Dor al-kutub al-Ilmiyya, 1974. – B. 85.

⁷ Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-tavhid (Bakir Topalo‘g‘li va Muhammad Orushiy nashri). Bayrut: “Dor sodir”, 2001. – B. 30.

Shabibning jismlar hodisligiga keltirgan hujjatlari, dahriylarning qarashlari fosidligi, sanaviylar da’olari, mannoniyalarning da’volari va ularning fosidligi bayoni, daysoniyalarning so’zлари va ularning fosidligi bayoni, majusiyalarning iddaolari va ularning fosidligi bayoni kabi masalalar yoritilgan.

2-bob: Nubuvvat masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda risolatning isboti, unga ehtiyojning bayoni, Varroqning risolat haqidagi qarashlari va ularga raddiya, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning risolati isboti, Ibn Ruvandiyning risolatni isbot qilishga keltirgan hujjatlari va uning Varroqga raddiyasi, nasroniyalarning Masih (Iso alayhissalom) borasidagi qarashlari va ularga raddiya kabi masalalar bayon qilingan.

3-bob: Qazo va qadar masalalarini o‘z ichiga oladi. Unda hikmat va aqliy nuqsonlilik masalasi, maxluqotlarning fe’llari va ularning isboti, (turli) firqalarning maxluqotlarning fe’llari borasidagi qarashlari, mu’taziliylarning maxluqotlar fe’llari borasidagi qarashlari va ularning noto‘g‘riliqi, Ka’biyning maxluqotlar fe’llari borasidagi qarashlari, fe’llarning yaratilishi haqida naqliy dalillar, fe’lning qudrati yoki uning istitoati, istitoatning fe’ldan oldin yoki u bilan birga bo‘lishi, Ka’biyning qudrat va toqat qilib bo‘lmaydigan narsaga taklif borasidagi qarashlari va ularning fosidligi bayoni, ajal, rizq, iroda masalalari, Ka’biyning iroda haqidagi qarashlari va ularning fasodi bayoni, qadariylar va mu’taziliylarni qoralash masalasi, Ka’biyning qadariyya haqidagi qarashlari hamda ularning noto‘g‘riliqi haqida ma’lumotlar bor.

4-bob: Gunoh va unga bog‘liq masalalar haqida. Unda musulmonlarning gunohi kabira qiluvchilar borasidagi ixtlofi, Ka’biyning gunohi kabira haqidagi qarashlari va ularning fosidligi bayoni, hikmat yo‘li ila ikki turdagи gunohlar o‘rtasini ajratish, mu’tazila firqasining iymon masalasidagi qarashlari, gunohi kabira va shafoat kabi mavzular mavjud.

5-bob: Unda iymon va Islom masalalariga o‘rin berilgan. Unda iymon tasdiqmi yoki ma’rifat ekani, irjo, iymonning maxluqligi, iymonda istisno kabi mavzular bayon etilgan⁸.

Kamoliddin Bayoziyning “Ishorat al-marom” nomli asarida 3 bobdan iborat bo‘lib ularda asosan Alloh taoloni tanishlik va uning sifatlari borasida bahslar keltirilgan.

Birinchi bob Alloh taoloni dalillar bilan tanish borligiyu birligiga istidlol bilan imon keltirish borasidadir.

Ikkinci bobda Alloh taoloning ism-sifatlari to’g’risida mulohazlar keltirilgan. Alloh taoloning “ru’yat” (ko’rish) sifati, “kalom” (gapishtish) sifati, “Iroda” (ixtiyor qilish) sifati va Allohnинг mutashobeh sifatlari borasida turli olimlarning qarashlari keltirilgan.

Uchinchi bobda esa, Allohnинг fe’liy sifatlari, takvin masalasi batafsil yoritib berilgan.

Bu kabi mavzular “Kitob at-tavhid”da “Mukallaf bandaga ilk vojib amal” mavzusi bilan boshlanib, “Rofiziyalarning Ali (r.a.) hamda uning avlodlarining Yer yuziga qaytishi haqidagi qarashlariga raddiya” masalasi bilan yakunlangan⁹.

Asarning boshida ahli haq nazdida narsalarning haqiqati sobitligi, olamning Alloh taolo mavjudligiga dalolat qilishi, olamning yaratuvchisi yagonaligi, U Zotning qadimligi, xohlagan ishini bajaruvchiligi, Alloh taoloning barcha narsalarni bilishi, har bir narsaga qodir ekani, U eshituvchi, ko‘rvuch, hamisha barhayot, har bir ishning tadbirini qiluvchi Zotligi, U javhar ham, jism ham, araz ham emasligi kabi masalalar bayon qilingan.

So‘ngra muallif Alloh taologa olitita tomonning birortasini nisbat berib bo‘lmasligi, rang, ta’m, hid, kayfiyat va boshqa shu kabi sifatlardan xoli ekanligi, biror makon tutmagani, nurni yaratgani, azaliv

⁸ Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-tavhid (Bakir Topalo‘g‘li va Muhammad Orushiy nashri). Bayrut: “Dor sodir”, 2001. – B. 65–490.

⁹ Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-tavhid (Bakir Topalo‘g‘li va Muhammad Orushiy nashri). Bayrut: “Dor sodir”, 2001. – B. 156–189.

sifatlarga ega ekanligi, kalom, takvin sifati, Alloh taoloni ko‘rish masalasini yoritib bergen .

Ushbu masalalar ahli sunna val jamoa, xususan, moturidiylik e’tiqodining asosiy masalalari bo‘lishi bilan bir qatorda, mujassima, mushabbiha firqalari, dahriy faylasuflar, mulhidlar va shu kabi boshqa adashgan firqalarga raddiya hisoblanadi.

“Kitob at-tavhid” kengroq qamrovga ega aqidaviy masalalarini yoritgan bo‘lsa, “Ishorat al-marom” asarida Kamoliddin Bayoziy moturidiya ta’limotidagi ba’zi masalalarni bayon etish, ba’zi firqalarga raddiya berish bilan kifoyalangan.

Ikki asarni o‘rgangan tadqiqotchi ularning barcha aqidaviy masalalarda o‘zaro mushtarak ekanligini ko‘radi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ikki asar ham o‘z davridagi dolzarb masalalarni aqliy va naqliy dalillar bilan ochib bergen. Shuningdek, ushbu masalalar yuzasidan ahli sunna val jamoa aqidasiga xilof qilganlarga raddiyalar berilgan. Bu ikki asardagi ko‘plab masalalar hali hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qtogani yo‘q. Shu bois, ularni ilmiy asosda puxta o‘rganish va ulardagi ko‘rsatmalardan unumli foydalanish bugungi kundagi mavjud muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kamoliddin Bayoziy. Ishorot al-marom, min iborot li-Imom Abi Hanifa an-Nu’mon. – Bayrut: Dor al-kutub al-Ilmiyya, 1974.
2. Abu Hanifa. Al-fiqh al-akbar. // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Hamidulloh Aminov. – Toshkent: Movarounnahr, 2022. – B.
3. Abu Hanifa. Vasiyat. // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Abdurashid Qori Bahromov. Imom A’zam asarlar. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.
4. Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-tavhid (Bakir Topalo‘g‘li va Muhammad Orushiy nashri). Bayrut: “Dor sodir”, 2001.
5. Islomov Z. Codicological Analysis of Manuscripts of “Mukaddamatu-l-Adab” of Mahmud Zamakhshari in the Funds of the World //The Light of Islam. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 30-36.
6. Islomov Z. International Islamic Academy of Uzbekistan—a result of the reforms worth to the centuries //The Light of Islam. – 2018. – T. 1. – №. 1.
7. Islomov Z. The role of the international Islamic academy of Uzbekistan in the development of Islamic studies //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 1.
8. Islomov Z. Source studies analysis of manuscripts of “muqaddimatu-ladab” in foreign archival funds //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 41.
9. Islomov Z. et al. WRITING DOWN OF HADITHS IN THE VII-VIII CENTURIES: APPROACHES AND METHODS //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 5536-5545.
10. Maxsudov D. Развитие исламоведения (корановедения) в Узбекистане: история и современность //Вестник КазНУ, Серия Религиоведение. – 2020. – Т. 21. – №. 1. – С. 60-67.
11. Maxsudov D. Razvitie islamovedenija (koranovedenija) v Uzbekistane: istorija i sovremennost’ //Chabaršy. Dintanu serijasy. – 2020. – Т. 21. – №. 1. – С. 60-67.
12. Maxsudov D. The development of transmitted and rational tafsirs //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 9.

13. Makhsudov D. Muslim world scientists of the temurids period //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 3. – C. 4.
14. Makhsudov D. Manuscripts of abul barakat al-nasafi's works on furu'Al-Fiqh //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2023. – T. 12. – №. 1. – C. 31-34.
15. Mahsudov D. IX-XV асрларда Мовароуннахрда ёзилган тафсирларнинг хусусиятлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 14. – С. 311-314.
16. Makhsudov D. R. Mufassirs of Mawarannahr //ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80). – 2019. – C. 539-543.
17. Makhsudov D. R. МУФАССИРЫ МАВЕРАННАХРА В СРЕДНИХ ВЕКАХ //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – C. 539-543.
18. Makhsudov D. A GENIUS OF THE WORLD //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 5. – C. 544-548.
19. Ugli A. Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNIY IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2020. – №. 24 (76). – C. 32-33.
20. Arslonov Z., Ergashev H. ALIKHANTORA SOGUNIY'S VIEWS ON POLITICAL GOVERNANCE IN EAST TURKESTAN //Студенческий вестник. – 2020. – №. 32-2. – C. 84-85.
21. Zokirjonugli Z. A. Approaches to studying the scientific heritage of Alikhantora Soguni //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 1
22. Zokirjonugli Z. A. APPROACHES TO STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ALIKHANTORA SOGUNI.
23. Arslonov Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNIY IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости, 2020. – №. 24-2. – C. 9-11.